

Rasulov Sherbek G'ayrat o'g'li

Toshent davlat yuridik universiteti magistranti

**INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI NIZOLARNI HAL ETISHNING
MUQOBIL USULLARI YOXUD SUDLOV TIZIMIDAN TASHQARIDA
NIZOLARNI HAL ETISH**

Rasulov Sherbek Gayrat ugli

Master of Tashkent State University of Law

**INTELLIGENT DISPUTES RESOLUTION IN THE FIELD OF
INTELLECTUAL PROPERTY OR DISPUTES RESOLUTION OUTSIDE
THE JUDICIARY**

Шербек Расулов Гайрат угли

Магистр Ташкентского государственного юридического университета

**ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ МЕТОДЫ РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ В
ОБЛАСТИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ ИЛИ
РАЗРЕШЕНИЕ СПОРОВ ВНЕ СУДЕБНОЙ СИСТЕМЫ**

**Intellectual mulk sohasidagi nizolarni hal etishning muqobil usullari yoxud
sudlov tizimidan tashqarida nizolarni hal etish**

Annotatsiya Intellectul mulkda nizolarini sudda ko'rib chiqishdan ko'ra sudgacha bo'lgan muqobil usullar qo'llanilishi zamonaviy huquq tizimlarida juda kerak. Intellectul mulk nizolarini sudda hal etish qimmatga tushadi, ko'p vaqt talab qildi va noto'g'ri qaror qabul qilish aytib bo'lmaydigan va nomuvofiq natijalarga olib keladi. Ushbu tadqiqot ishi intellectul mulk nizolarni hal qilish uchun mediatsiya, arbitraj va hakamlilik muhokamasi kabi muqobil usullardan keng foydalanish imkoniyatini o'rganadi va bu nizolarni hal qilish uchun qanchalik mos kelishini tahlil qiladi. O'zbekiston huquqiy tizimida intellectul mulkka oid nizolarni hal qilishda mavjud bo'lgan muammolar va nizolarni muqobil usulda hal etishni joriy etish uchun qanday qadamlar kerakligiga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot ishining xulosasiga ko'ra, nizolarni muqobil hal etish mexanizmlari intellectul mulk uchun juda mos

keladi va O'zbekiston bunday tizimni amalga oshirish uchun katta qadamlar qo'yishi kerak.

Kalit so'zlar: *sud, mediatsiya, mediativ kelishuv, arbitraj kelishuvi, HMM(ADR), Med-Arb*

Аннотация. В современных правовых системах использование альтернативных методов досудебного производства более важно, чем рассмотрение споров об интеллектуальной собственности. Разрешение споров в отношении интеллектуальной собственности в суде требует больших затрат и времени, а принятие неправильного решения приводит к непредсказуемым и непоследовательным результатам. В этом исследовании рассматривается возможность широкого использования альтернативных методов, таких как посредничество, арбитраж и арбитраж, для разрешения споров в области интеллектуальной собственности, а также анализируется их применимость для разрешения споров. Особое внимание уделяется существующим в правовой системе Узбекистана проблемам в разрешении споров, связанных с интеллектуальной собственностью, и тем, какие шаги необходимо предпринять для внедрения альтернативного разрешения споров. В исследовании делается вывод о том, что альтернативные механизмы разрешения споров очень подходят для интеллектуальной собственности, и Узбекистану необходимо предпринять большие шаги для внедрения такой системы.

Ключевые слова. *суд, медиация, медиативное соглашение, арбитражное соглашение, APC, Мед-Арб*

Annotation. In modern legal systems, the use of alternative pre-trial methods is more important than the litigation of intellectual property disputes. Resolving intellectual property disputes in court is costly, time consuming, and making the wrong decision can lead to unpredictable and inconsistent results. This research paper examines the possibility of extensive use of alternative methods such as mediation, arbitration, and arbitration to resolve intellectual property disputes, and analyzes how appropriate they are to resolve disputes. In the legal system of Uzbekistan, special attention is paid to the existing problems in the settlement of intellectual property disputes and what steps are needed to introduce alternative dispute resolution. The study concludes that alternative dispute resolution mechanisms are very suitable for intellectual property, and Uzbekistan needs to take big steps to implement such a system.

Keywords. *court, mediation, mediation agreement, arbitration agreement, ADR, Med-Arb*

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi davrda hayotimizni intellektual mulk obyektlarisiz tasavvur eta olmaymiz. Intellektual mulk inson tomonidan yaratiladigan ijodiy aqliy faoliyat mahsuli hisoblanadi. Intellektual mulk iqtisodiyot rivojlanishining tarkibiy qismlaridan biridir. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasida intellektual mulk rivojiga katta e'tibor qaratilgan.

Bugungi kunda intellektual mulk sohasi rivoji bilan bir qatorda ushbu sohaga doir nizolar ham ortib bormoqda. Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi keltirgan malumotlarga qaraganda 2019-yildan intellektual mulk nizolariga oid sud jarayonlari keskin ortdi, jumladan, 2016-yil – 60 ta, 2017-yil – 85 ta, 2018-yil – 89 ta, 2019-yil – 60 ta, 2020-yil – 213 ta.¹ Sud jarayonlarining asosiy qismi tovar belgilarini huquqiy muhofaza etilishi bilan bog'liq nizolardir. Ushbu statistik ma'lumotlarga tayanib aytadagan bo'lsak, bugungi kunda intellektual mulk huquqiga oid munosabatlar dolzarb mavzuga aylangan va muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Intellektual mulk sohasidagi nizolar an'anaga ko'ra, nizolarni hal qilish odil sud yordamida amalga oshiriladi. Ammo, yuzaga keladigan nizolarni sud yordamida hal qilish har doim ham maqsadga muvofiq emas. Sudlarning ish yuki, sud ishlarining uzoq davomiyligi, tomonlarning sud jarayonini kechiktirishning turli usullaridan foydalanish imkoniyati, qimmatligi ziddiyatlarni hal qilishning yangi, tejamkor, samarali va oddiy usullarini izlashga undaydi. Butun dunyoda bunday usullarga nizolarni hal qilishning muqobil usullari (ADR) sifatida qaraladi. Hozirda nizolarni muqobil hal etishning usullaridan bo'lgan va chet davlatlarda samarali ishlatilayotgan yarashtiruv taomillari – mediatsiya, hakamlilik muhokamasi orqali hal etishlari mumkin. Nizolarni muqobil hal etish deganda davlatning odil sudlov tizimidan tashqarida nizolarni hal etishning uslub va usullari tushiniladi.

Intellektual mulk sohasidagi ko'plab nizolar uchun muqobil usullarni qo'llash qulay hisoblanishi mumkin. Chunki tomonlarning manfaatlari sudda g'olib deb e'lon qilishdan ko'ra ikkala tomon uchun maqbul natija bo'lgani foydalidir. Tomonlarning nizolarni muqobil usulda hal etish protsessini afzal ko'rishlarining asosiy sabablaridan biri shundaki, bahsli sud jarayonlaridan farqli o'laroq, nizolarni muqobil usulda hal etish protseduralari ko'pincha birgalikda bo'lib, tomonlarning bir-birlarining pozitsiyalarini tushunishiga imkon beradi. Nizolarni muqobil usulda hal etish, shuningdek, tomonlarga sud tomonidan qonuniy ravishda yo'l qo'yilmasligi mumkin bo'lgan yanada samarali yechimlarni taklif qilishga imkon beradi. Tomonlar sud jarayonidan oldin iloji boricha ko'proq masalalarni hal qilish g'oyasi bilan muqobil usulning bir yoki bir nechta shakllaridan foydalanishni tanlashlari mumkin.

¹ <http://www.ima.uz/uz/information/info/news/1886/>

Intellektual mulk huquqi nizolarini hal etishda muqobil usullardan foydalanishning afzalliklarini quyida batafsil ko‘rib o‘tamiz:

Maxfiylik; Ko‘pgina o‘zaro litsenziyalangan tovarlarga ega bo‘lgan kompaniyalar litsenziyalar qiymatini himoya qilish uchun ADR jarayonlarini sir saqlashni istashlari mumkin. Agar nizo tijorat siriga taalluqli bo‘lsa, maxfiy ma’lumotlar shu tarzda qolishini ta’minlash uchun maxsus choralar ko‘rilishi mumkin. Mediatsiya qilingan kelishuv shartlari va hakamlilik qarorlari sir saqlanishi mumkin, neytral (lar) maxfiylik to‘g‘risidagi bitimlar bilan bog‘langan.

Vaqtning tejallishi; Intellektual mulk bo‘yicha sud jarayonlari uzoq yilgacha davom etishi mumkin bo‘lsa, ADR mexanizmlari o‘z vaqtida tugatilishi uchun yaratilgan. Bir yildan ortiq davom etadigan intellektual mulk to‘g‘risidagi mojaro kamdan-kam uchraydi. ADRning ko‘plab shakllarida tomonlar va neytral (lar) muddatlarni kelishishlari mumkin. Bundan tashqari, nizoga sarf qilingan soatlarning soni kamayganligi sababli, advokatlarning to‘lovlari odatda mutanosib ravishda kamayadi.

Xarajatlarning kamligi; Bir necha million dollarlik intellektual mulk bo‘yicha sud jarayonlarida ishtirok etadigan ko‘plab yirik korporatsiyalar uchun xarajatlar odatda kichik va o‘rta kompaniyalar va jismoniy shaxslar uchun birinchi o‘ringa ega. Tomonlar jarayonni o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun tuzishi mumkinligi sababli, ular uchun jarayon xarajatlarini, shuningdek, natija narxini nazorat qilish ham osonroq.

Intellektual mulk huquqida nizolarini muqobil ravishda hal qilish usullari turli xildir. Ular rivojlanmoqda, shu jumladan, vositalar toifasidagi tobora ko‘proq yangi mexanizmlar, bu orqali majburiyatlarini bajarmaslik yoki adolatsiz bajarish bilan bog‘liq har qanday nizoni sudga murojaat qilmasdan hal qilish mumkin. Xorijiy davlatlarda bu borada o‘ttizdan ortiq usuldan foydalaniladi. Asosiy muqobil usullar sifatida mediatsiya, muzokara va hakamlikni keltirib o‘tishimiz mumkin. Shu bilan birga, mediatsiya va hakamlilik sudlarining birlashgan protsessual modellari ishlab chiqilgan. Bu gibril usul Med-arb deb ataladi. Quyida biz ushbu usullarni batafsil ko‘rib o‘tamiz.

Nizolarni hal qilishning muqobil usullaridan biri – mediatsiya hisoblanadi. Mediatsiya — bu bir-birini tushunish va nizoli holatni bartaraf etuvchi bitim tuzishga erishish maqsadida xolis shaxs — mediator (vositachi) ishtirokida taraflarning erkin muzokaraga kirish yo‘li bilan nizoni muqobil hal qilish usulidir.

Mediatsiya nazariy jihatdan nizolarni hal qilishning arzon va tezkor shakli hamda sud jarayoniga norasmiy alternativ hisoblanadi. Mediatsiya nizolarni hal qilishning boshqa usullari, xususan nizolarni sud tartibida hal qilishdan o‘zining bir qator afzalliklari bilan ajralib turadi. Jumladan, nizolarni hal qilishning muqobil

protsedurasi sifatida, mojaro ishtirokchilariga nizolarni hal qilish variantlarini mustaqil ravishda belgilash huquqini berish kabi afzalliklarga ega. Shu bilan birga, nizo tomonlari moliyaviy mezonlari, raqobatbardoshligi, bozor narxlari va ishbilarmonlik obro'sini hisobga olgan holda ularning tijorat ehtiyojlaridab kelib chiqib manfaatli echim to'g'risida kelisha olishlari mumkin. Mediator va sudyalari o'rtasidagi farq tomonlarning da'volarini va ularning huquqlarini belgilovchi omillarni tahlil qilish uchun qo'llanilishi kerak bo'lgan muayyan standartlar yoki qoidalarining yo'qligidadir.¹

Nizolarni hal qilishning muqobil usullaridan yana biri – hakamlik sudi hisoblanadi. Hakamlik sudi (Arbitraj) - bu nizolarni hal qilishning muqobil usuli bo'lib, unda tomonlar o'rtasidagi nizolarni davlat sud organlari tomonidan emas, balki taraflar tomonidan tayinlangan hakamlar tomonidan hal qilinadi.

Hakamlik sudi asosan shartnomaviy munosabatlar va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishi to'g'risidagi nizolarni ko'rib chiqadi. Tomonlar erkin muhokama qila olmaydigan masalada murosaga kelish mumkin emas. Masalan, ajralish to'g'risidagi ish hakamlik sudi tomonidan hal qilinmaydi. Hakamning qobiliyati va adolatliligi har qanday arbitrajda hal qiluvchi element bo'lganligi sababli, tanlov jarayoni hakamlik sudining muhim jihati hisoblanadi. Hakamlik sudlari doimiy va muvaqqat faoliyat yurituvchi hamda ixtiyoriy yoki majburiy bo'lishi mumkin.

Med-Arb. ADRga yagona yondashuv - bu vositachilik va hakamlik aralashmasidan foydalanish. Masalan, tomonlar avval kelishmovchilikda vositachilik qilishga urinish uchun oldindan kelishib olishlari mumkin, so'ngra vositachilik amalga oshmasa, hal qilinmagan masalalarni hakamlik sudiga yuborishi mumkin. Tomonlar vositachilik va hakamlik sudyalari uchun bir xil neytraldan foydalanishi yoki ikkinchi jarayon uchun yangi neytralni tanlashi mumkin.

Intellektual mulkni himoya qilish bilan bog'liq nizolar O'zbekiston huquqiy sharoitida ham asta-sekin o'sib bormoqda. Intellektual mulk egalari o'z huquqlari buzilganligi uchun sudlarga murojaat qilishmoqda. O'zbekistonda intellektual mulk huquqini rivojlantirish yo'lida katta ishlar amalga oshirilmoqda, ammo, nizolarni muqobil hal etish choralari qo'llanilishi keng joriy etilmagan. Intellektual mulk huquqlarining buzilishi nizolarni hal qilishning muqobil choralari qo'llash orqali juda yaxshi hal qilinishi mumkin. Shuning uchun intellektual mulk huquqidagi nizolarni hal qilishning muqobil usullariga ehtiyoj ortib bormoqda. Sud tartibida hal qilish bilan birga nizolarni muqobil hal qilish choralari intellektual mulk obyektlarini himoya qilishni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlanayotgan

¹ <http://www.iccwbo.ru/blog/2016/alternativnoe-razreshenie-sporov/>

mamlakatlarda ko‘proq intellektual mulk bozorga kirmoqda va intellektual mulk aloqalari odatiy holga aylanib bormoqda hamda nizolar ham ko‘paygan. Xorijiy davlatlar intellektual mulkda nizolarni hal qilishning suddan tashqari turli usullariga murojaat qilishmoqda. Vaholanki, muqobil usul tomonlar uchun samaralidir. Intellektual mulk huquqining egalari doim zudlik bilan va tezkor odil sudlovni amalga oshirish mexanizmlarini xohlashadi. Ishlarni ko‘rib chiqishni asossiz ravishda kechiktirish va qimmatga tushadigan sud jarayonlari intellektual mulkni muhofaza qilishni rivojlanishiga yordam bermaydi. Intellektual mulk uchun nizolarni hal qilishning muqobil choralari davr talabiga ham aylangan. Shuni ta’kidlash kerakki, xorij tajribasida barcha iqtisodiy masalalar yuzasidan nizolarni muqobil ravishda hal qilish yo‘li allaqachon joriy etilgan. Hozirgi kunda intellektual mulk bilan bog‘liq shartnomalar asosan hakamlik va mediatsiya shartini o‘z ichiga oladi.

Mamlakatimizda davlat organlarining aholi bilan muloqotini takomillashtirish, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta’minlash hamda ularning muammolarini hal etishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ushbu sohada islohotlarning hozirgi bosqichi davlat organlarida nizolarni sudgacha ko‘rib chiqishning yagona tizimini yaratish, mediatsiya, hakamlik sudlari hamda xalqaro arbitrajlarini fuqarolar hamda tadbirkorlarning ishonchiga sazovor bo‘ladigan nizolarni hal etuvchi samarali muqobil institutlarga aylantirish lozimligini taqozo etmoqda.¹ So‘nggi paytlarda suddan tashqari nizolarni hal qilishning muqobil usullari asta-sekin kuchayib bormoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 17-iyun kuni qabul qilingan “Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4754-son qarori ham shu maqsadda qabul qilingan desa mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bugungi kunda Yurtimizda, asosan, **mediatsiya, hakamlik sudlari va apellatsiya kengashi** sudgacha nizolarni hal qilish vositasi bo‘lib bormoqda.

Bizning huquqiy tizimimizda mediatsiya instituti Mediatsiya to‘g‘risidagi qonun qabul qilinishi bilan tartibga solinadi. Mazkur qonun 2018-yil 3-iyulda qabul qilindi. “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonunning maqsadi nizolarni tartibga solishning muqobil usullarini rivojlantirish uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratish, sud tizimiga tushadigan ish hajmini kamaytirishdan iborat.

Hakamlik sudi - nizolarini hal etuvchi nodavlat organi. Hakamlik sudi nizolarni O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari asosida hal qiladi. O‘zbekiston Respublikasining “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi Qonuni 2006-yil

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi PQ-4754-son “Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori

16-oktyabrda qabul qilinib, 2007-yil 1-yanvardan kuchga kirgan. “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinishi bilan mamlakatimizda sud-huquq islohotlarining yangi bosqichi boshlandi. Shu bilan birga intellektual mulkda vujudga kelgan nizolar ham hakamlikda ko‘rilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi Qonunining asosiy maqsadi respublikamizda hakamlik sudlarini tashkil etish va faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Apellyatsiya kengashi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 1-iyuldagi PQ-4380-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Adliya vazirligining Apellyatsiya kengashi to‘g‘risida nizom Vazirlar Mahkamasining 2019-yildagi 856-son qarori bilan tasdiqlangan.

Bugungi kunda Agentlik tomonidan olib borilayotgan aholining intellektual mulk huquqi sohasidagi huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlari anchagina samara bermoqda va natijasi o‘laroq intellektual mulk sohasi bilan bog‘liq nizolar bo‘yicha Apellyatsiya kengashiga murojaatlar ko‘paymoqda. Jumladan, Adliya vazirligining Apellyatsiya kengashi yangi tarkibda intellektual mulk sohasidagi nizolarni ko‘rib chiquvchi sudgacha organ sifatida 2020-yil davomida 47 ta apellyatsiya shikoyati qabul qilingan bo‘lib, shundan 34 ta apellyatsiya ishi ko‘rib chiqilgan. Ushbu shikoyatlar ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra, 14 tasi bo‘yicha rad etish to‘g‘risida, 20 tasi bo‘yicha qanoatlantirish haqida qarorlar qabul qilingan. Xususan, 2020-yilning noyabr oyida o‘tkazilgan navbatdagi apellyatsiya yig‘ilishlarida 9 ta tovar belgisiga va 1 ta sanoat namunasiga oid ish ko‘rib chiqilib, 3 ta apellyatsiya bo‘yicha murojaat etuvchilarning foydasiga qaror chiqarildi hamda 7 ta apellyatsiya talablarini qanoatlantirish rad etildi. Bugungi kunga kelib sud instancesiyalari tomonidan 69 ta Apellyatsiya kengashi qarorlaridan 2 tasi bekor qilingan. Bu esa, o‘z navbatida, qarorlar har tomonlama obyektiv va qonuniy ekanligidan dalolat beradi. Bu ko‘rsatkich, 2021-yil mart oyiga qadar 23 tani tashkil etadi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek nizolarni sud protsessisiz hal qilishning har qanday usuli muqobil usul (ADR) sifatida qaraladi. Bugungi kunda yurtimizda intellektual mulk huquqiga e‘tibor kuchaymoqda va yetarlicha qonun hujjatlari ham qabul qilinib kelinmoqda. Intellektual mulk huquqi muhofazasini ta‘minlash bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlari uchun dolzarb va yechimi kutayotgan muhim ahamiyatga ega masalalardan biridir. Sud tizimidan farqli o‘laroq ADR har ikkala tomon uchun maqbul bo‘lgan ijodiy yechim topishga qaratilgan Intellektual mulk nizolarni hal qilishning samarali usuli hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo tajribasi va taraflar uchun qulayliklarni inobatga olgan holda fuqarolarimizga nizolarni muqobil

vositalar yordamida hal etish mumkinligi tushuntirishimiz zarur. Mamlakatimizda sudlar nizolarni hal etishning yagona chorasi bo‘lib qolmasligini ta‘minlash muhimdir. Fuqarolar, qachonki, umuman murosaga kela olmasalar murojaat qiladigan joy sud bo‘lishi kerak. Albatta bu oson ish emas va ancha muammolar ham mavjud. Biz ushbu muammolarni yengib, rangbarang huquq tizimiga ega davlatga aylanishimiz va ADRni keng joriy etishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hakamlik muhokamasi / O‘quv qo‘llanma. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYuU, 2016. - 131 bet.
2. Update on the WIPO Arbitration and Mediation Center’s Experience in the Resolution of Intellectual Property Disputes, WIPO Center, Les Nouvelles, Journal of the Licensing Executives Society International, March 2019, p. 49.
3. Update on the WIPO Arbitration and Mediation Center’s Experience in the Resolution of Intellectual Property Disputes, WIPO Center, Les Nouvelles, Journal of the Licensing Executives Society International, March 2019, p. 49.
4. ЎЗБЕКИСТОН ҚОНУНЧИЛИГИ ТАҲЛИЛИ ♦ UZBEK LAW REVIEW ♦ ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬНОСТВА УЗБЕКИСТАНА// 2019, №3 107 бет
5. “Юрист ахборотномаси. Вестник юриста. Lawyer herald” илмий-амалий журнали. 87 бет.
6. Интеллектуал мулк ҳуқуқининг долзарб муаммолари / хорижий экспертлар иштирокида (видеоконференция шаклида) Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДЮУ, 2020. – 336 бет